

O‘ZBEK ISMLARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Melibayeva Soxibaxon Adxammirza qizi
Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TA doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek xalqi farzandlariga ism qo‘yishdagi ayrim an’analar, jarayonlar va holatlardan kelib chiqqan holda milliy madaniyatimizga bevosita dahldor holatda nom berishi, bu kabi antroponimlarning kelib chiqishiga doir jihatlar va ularning ma’nolari, ko‘rinishlari haqida so‘z boradi.

Abstract. In this article, the Uzbek people give names directly to our national culture based on some traditions, processes and circumstances in naming their children, the aspects of the origin of such anthroponyms, their meanings and appearances goes.

Kalit so‘zlar: antroponimlar, atoqli otlar, milliylik, urf-odatlar, etimologiya, semantika, bayramlar, milliy tilshunoslik, munosabat.

Key words: anthroponyms, popular nouns, nationality, customs, etymology, semantics, holidays, national linguistics, attitude.

O‘zbek antroponimlarini tahlil qilib borilar ekan, ularda azaliy xalqimizning urf-odatlarini, orzu-umidlari, ma’lum bir jarayon, davr bilan bog‘liq holatlar singib ketganligini guvohi bo‘lamiz. Azaldan ota-bobolarimiz farzandga ism qo‘yishda turli-tuman niyatlar, orzular ila kelajakda shu ismi farzand ruhiyatiga, kelajagiga ta’sir etadi degan dunyoqarash bilan ism tanlab, qo‘yib kelishgan. Ayrim farzandlar ismiga e’tibor beradigan bo‘lsak, “ismi o‘zi bilan tug‘ildi” degan jumlagacha ko‘zimiz tushadi. Demak, farzandning tug‘ilishi bilan uning tanasidagi ma’lum bir holat yoki farzand tug‘ilayotgan jarayon bilan bog‘liq bo‘lgan ba’zi holatlardan kelib chiqib ularga maxsus ismlar qo‘yiladi. Masalan. Erkin Vohidov “Otdoshlarimga” she’rida Toji ismining qo‘yilishi haqida:

Zora tole belgisi bo‘lsa,
Zora bo‘lsa omad rivoji,
Bola qizil dog‘lik tug‘ilsa,
*Atadilar baxt uchun **Toji.***

Bola tanasida qizil dog‘ bilan tug‘ilsa, unga *Toji* ismi qo‘yiladi. Agar badanida holi va toji bo‘lsa, *Holtoji*, badanida qizil hol (belgi) bilan tug‘ilgan bola yoki badanida ham holi (qora holi), ham nori (qizil holi) bor bo‘lgan bolalarga *Tojinor*, *Xoltoji* kabi ismlar qo‘yilgan.

O‘zbek xalqi bolajon xalq. Xoh o‘g‘il bo‘lsin, xoh qiz bo‘lsin farzandning borligi yaxshi. Milliy madaniyatimizdan kelib chiqqan ayrim holatlar borki, xalqimiz orzu-umidini, niyat-istaklarini shu farzandga ism qo‘yish orqali ro‘yobga chiqishiga ishonishgan va shunday ismlar qo‘yilgan bolalarga. Masalan, farzandlari tug‘ilib,

birozdan keyin yashab ketmay vafot etish holati takrorlansa, bundan keyin tug‘iladigan farzandga *Tursun, Tursunoy, Tursunqul, Turdi, To‘xtasin, Tursuntosh* kabi ismlar qo‘yilgan va shu bilan farzand o‘limi holatiga chek qo‘yilishini niyat qilishgan. Erkin Vohidov “Otdoshlarimga” she’rida *To‘xtasin* ismi qo‘yilishi haqida shunday satrlar keltiradi:

Ona farzand ko‘rib to‘rtovlon,
Qaro yerga bersa to‘rttasin.
Tug‘ilganda beshinchi o‘g‘lon
Umid bilan degan “*To‘xtasin*”.

Farzand bu Yaratgan tomidan berilgan buyuk bir mo‘jiza. Bola tug‘ilganda tanasining ma’lum bir qismida ortiqcha belgisi, ortig‘i bilan tug‘ilsa, bunday farzandlarga *Ziyod, Ortiq, Ziyoda* kabi ismlar qo‘yish an’ana hisoblanadi.

O‘zbek mentalitetida yana shunaqangi bir holat borki, qiz farzandi ko‘p otanalar keyingisi o‘g‘il bo‘lishini niyat qilib, oilada o‘g‘il farzandning dunyoga kelishini intiqlik bilan kutayotgan bo‘lishsa, to‘rtinchi, beshinchi yoki undan keyingi qizlarga *O‘g‘iloy, Ulsin, Uloy* kabi ismlarni qo‘yib, xuddiki, shu ism qo‘yish orqali keyingi farzand o‘g‘il bo‘lishiga umid qilishgan. Erkin Vohidov “Otdoshlarimga” she’rida ushbu ismning qizlarga qo‘yilishi haqida shunday yozadi:

*Chaqaloqni yo‘rgakka tugib,
«Yana holva», deganda doya,
Ota, endi o‘g‘il kerak, deb
Qiziga nom qo‘ydi: **Kifoya.**
O‘g‘il bo‘lsa — yurt ko‘ksi baland,
O‘g‘il tutar ketmon-u o‘q-yoy...*

*O‘g‘il bola orzusi bilan
Qizlar nomi bo‘ldi **O‘g‘iloy.***

So‘zning kuchi, uning psixologik ta’siri o‘g‘il tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan ismga ega qizlar esa o‘g‘il bola xarakter xususiyatlarini beixtiyor o‘zlarida mujassam etadi. Ehtimol, hanuzgacha chekka qishloqlarda; ma’naviy, ijtimoiy, psixologik, diniy ta’limotlar yetarli bo‘lmagan joylarda shu kabi ismlar chaqaloqqa qo‘yilib kelinmoqda. Masalan, E.Begmatovning o‘zbek ismlari lug‘atida O‘g‘il so‘zi bilan boshlanuvchi 53 ta ism keltiriladi. Bu qutli qizdan keyingisi o‘g‘il bo‘lsin; oliy nasabli bu qizdan keyingisi o‘g‘il bo‘lsin; bu qizdan keyin o‘g‘il bersin, Alloh o‘g‘il ato qilsin; ushbu e’zozli qizdan keyingisi o‘g‘il bo‘lsin; bozor kuni tug‘ilgan bu qizdan keyingi farzand

o'g'il bo'lsin kabi izohlar bilan *O'g'ilbaxt*, *O'g'ilbegi*, *O'g'ilbeka*, *O'g'ilbersin*, *O'g'ilbibi* singari ismlar lug'at tarkibidan o'rin oladi¹.

O'zbek xalqida biron-bir tabiat hodisa ro'y berayotgan vaqtda tug'ilgan bolalarga ham alohida ism qo'yish tutumi bo'lgan. Masalan, agar bola shamol yoki bo'ron bo'layotganda tug'lsa, unga Shamolboy, Bo'ron, Bo'ronali, Bo'ronberdi, Bo'ronchi, Bo'rongul ismlari qo'yilgan. Dovul bo'layotganda tug'ilgan bola Dovulboy ismi berilgan.

Ma'lumki, quyosh charaqlab turgan paytda yomg'ir yog'sa, "bo'ri bolalayapti" deb tushunilgan. Ota-bobolarimizning esa shunday ob-havoli kunda tug'ilgan bolaga Bo'riboy, Bo'rixon kabi ismlarni berish odati bo'lgan. Said Ahmad o'zining "Qorako'z Majnun" hikoyasida xalqimizning ana shu odatini esga olgan: Saodat aya shu bolasiga to'lg'oq tutayotganda oftob charaqlab turardi-yu, yomg'ir sharros quyayotgan edi. Derazadan hovliga qarab turgan doya xotin: "**Bo'ri bolalayapti**", degandi. Shuning uchun ham o'g'liga u **Bo'rixon** deb ism qo'ygandi. Oradan ellik bir yil o'tib, bu bolani men emas, bo'ri tuqqan ekan, degan xayolga bordi.

Xalqimizda yangi tug'ilgan chaqaloqlarga ism qo'yishda yana shunday odat borki, agar farzand haftaning juma kunida tug'lsa unga *Jumanazar*, *Jumagul*, *Jumavoy*, *Odina* kabi nomlar qo'yilsa, haftaning yakshanba kuni tug'ilgan o'g'il bolalarga *Bozorvoy*, *Bozorqul*, *Mirbozor*, *Bozorali* kabi ismlar qo'yiladi.

Bundan tashqari, o'zbek xalqining milliy, qadimiy, an'anaviy bayramlari bilan bog'liq kishi nomlari ham mavjudki, bunday ismlar farzandlarga ushbu bayram va marosimlar vaqtida dunyoga kelgan farzandlarga qo'yiladi. Masalan, diniy bayramimiz bo'lgan Hayit ayyomlarida, muborak Arafa kunida yoki ramazon oyida dunyoga kelgan farzandlarga *Hayitxon*, *Hayitvoy*, *Hayitali*, *Arofat*, *Ramazon*, *Ro'zivo* kabi ismlardir. Agar milliy bayramimiz bo'lgan Navro'z bayrami kuni tug'ilgan farzandlarga esa *Navro'za*, *Navro'zbek*, *Navro'z* ismlari qo'yiladi. Bunday bayramlar bilan bog'liq holda farzandga ism qo'yish o'zbek xalqining milliy-madaniy an'analari orqali yuzaga kelgan.

Jahon tilshunosligida atoqli otlarda shaxsga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishi, ayniqsa, ularning yuzaga kelishida til sohiblarining dunyoqarashi, ruhiyati, voqelikka munosabati kabi masalalarni jiddiy o'rganish turli tillardagi atoqli otlarda kuzatiluvchi milliy-madaniy o'ziga xoslikni aniqlashga imkon yaratadi. Milliy tilshunosliklarda atoqli otlar tizimini antropotsentrik aspektida tadqiq etish milliy tillar onomastikasini yanada takomillashtirishga, bunday birliklardagi semantik o'zgarishlarni aniqlashga, mazkur birliklarning etimologiyasi bilan bog'liq xato va chalkashliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

¹ O'zbek ismlarining lingvistik tahlili. Ilmiy risola. / X. Kadirova – Toshkent: ..., 2022

Onomastik tadqiqotlarning lingvistik-madaniy jihati birinchi navbatda quyidagilar bilan belgilanadi, ism ma'lum bir davr va ma'lum bir madaniyatning "mahsuli" ekanligi. Ba'zan bitta ism asosida kimga, qachon va nima uchun berilganligini ayta olasiz. Onomastik tadqiqotlarning tarixiy va madaniy jihati nomlar paydo bo'lgan milliy madaniy fonni o'rganishni anglatadi va ularning tizimlari rivojlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begmatov E. O'zbek ismlari. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1998.
2. Begmatov E.A. Ism chiroyi. – Toshkent: Fan, 1994. 74-75 B.; Begmatov E.A. Nomlar va odamlar. – Toshkent: Fan, 1966.
3. Bekmurodov N. Eng chiroyli ismlar va ularning ma'nolari. Toshkent: Yangi kitob, 2019. – B.528
4. O'zbek ismlarining lingvistik tahlili. Ilmiy risola. / X. Kadirova – Toshkent: ..., 2022